



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Kurbanov Ilxom Begamovich

Toshkent Davlat iqtisodiyot
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyotining bugungi kundagi holati, soliqqa tortishda yuzaga kelayotgan muammolar hamda uning samaradorligini oshirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Bugungi kundagi ijtimoiy iqtisodiyot konsepsiyasi xalq turmush farovonligini yanada yaxshilash, kambag'allik va kam ta'minlanganlikning o'sishiga yo'l qo'ymaslik zaruriyatidan kelib chiqadi. Shuning uchun mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlar zamirida aholi daromadlariga nisbatan moslashuvchan soliq siyosatini amalga oshirish maqsadi asosiy masala hisoblanadi. Ish haqini ko'paytirish, daromadlar miqdoriga bog'liq ravishda maksimal soliqqa tortish siyosatini qo'llash, kuchli ijtimoiy himoya hamda kam daromadli aholini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining konseptual asoslari ko'rib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini yanada takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq, soliqqa tortish, aholi daromad, kambag'allik, kambag'allikni qisqartirish, jismoniy shaxslar, jismoniy shaxslar daromad solig'i, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari soliq ob'ekti.

Аннотация: В статье анализируется современное состояние налогообложения доходов населения в Республике Узбекистан, проблемы, возникающие в сфере



налогообложения и направления повышения его эффективности. Сегодняшняя концепция социальной экономики вытекает из необходимости дальнейшего повышения благосостояния людей, предотвращения роста бедности и лишений. Поэтому задача реализации гибкой налоговой политики по отношению к доходам населения является основным вопросом проводимых в нашей стране реформ. Он направлен на повышение заработной платы, применение политики максимального налогообложения в зависимости от размера дохода, сильную социальную защиту и поддержку малообеспеченного населения. Концептуальные основы подоходного налога с физических лиц рассмотрены в перспективе социально-экономического развития страны. В Республике Узбекистан исследованы вопросы дальнейшего совершенствования механизма взимания налогов с доходов физических лиц и разработаны рекомендации.

Ключевые слова: налог, налогообложение, доходы населения, бедность, сокращение бедности, физические лица, индивидуальный подоходный налог, налоговая ставка, налоговые льготы, объект налогообложения.

Abstract: The article analyzes the current state of taxation of personal income in the Republic of Uzbekistan, problems arising in the field of taxation and directions for increasing its efficiency. Today's concept of social economy stems from the need to further improve people's well-being and prevent the growth of poverty and deprivation. Therefore, the task of implementing a flexible tax policy in relation to household income is the main issue of the reforms being carried out in our country. It aims to increase wages, implement a policy of maximum taxation depending on income, strong social protection and support for low-income people. The conceptual foundations of personal income tax are considered from the perspective of the country's socio-economic development. In the Republic of Uzbekistan, issues of further improving the mechanism for collecting taxes on personal income have been studied and recommendations have been developed.



Key words: tax, taxation, population income, poverty, poverty reduction, individuals, individual income tax, tax rate, tax credits, tax object.

Kirish: Ma'lumki, aholi bandligini ta'minlash, daromadini yanada oshirish, mulki va aktivlari qiymatining muttasil oshib borishini kafolatlash orqali ular turmush sharoitini yaxshilashni soliq mexanizmi orqali rag'batlantirish muhim hisoblanadi. Hozirda aholining yanada to'liq va samarali bandligini ta'minlash, daromadlarini yanada oshirish, mulki va aktivlari qiymatining muttasil oshib borishini kafolatlash ahamiyatining o'sganligi O'zbekiston Respublikasida ham jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Davlat taraqqiyoti, soliq siyosati va soliq mexanizmini o'zgartirishning butun mexanizmi o'zgarganligi sababli, hozirgi davlat rivojlanish bosqichi eski xo'jalik boshqaruv mexanizmidagi o'zgarish, eski boshqaruv vositalarini yangi texnologiyalar bilan almashtirish bilan tavsiflanadi. Bozor munosabatlarining tarkibiy qismi va ularni tartibga solish mexanizmini takomillashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq ma'muriyatchiligini mukammallashtirishda 1 yanvar 2020 yildan kuchga kirgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi PQ 3856-sonli "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" muhim huquqiy-me'yoriy asos hisoblanadi.

Respublikamizda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish borasida olib borilayotgan islohotlarda soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlash, soliq yukini kamaytirish orqali aholi real daromadlarini oshirish, iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi soliq tizimini



shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu uchun soliq yukini aholining ijtimoiy qatlamlari o'rtasida teng taqsimlash, mavjud imtiyozlarning samaradorligini baholash va optimallashtirish, aholining real daromadlarini oshirishda soliq tizimining muhim elementi hisoblangan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili: Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish borasida ilmiy tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarda keng miqyosdagi dolzarb tadqiqot yo'nalishini sifatida o'rganilib kelinmoqda. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish masalasida turlicha fikrlar bildirilgan. Jumladan, xorijlik olimlar Matteo Morino, Simon Pilegrinolar tomonidan Jismoniy shaxslar daromadiga soliq strukturasi har bir davlatning soliq tushumlari va daromadlar qayta taqsimlanishi samaradorligini aniqlash bilan bir qatorda, ishchilarning rasmiy ish bilan ta'minlanishi orqali iqtisodiy samaradorlikka ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib berilgan bo'lsa, Xarli L.Luts tomonidan esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining davlat byudjetida tutgan o'rni va soliq imtiyozlarini tadqiq etgan, imtiyozlarning aholi daromadlarini oshirishdagi o'rnini o'rganilgan.

O'zbekistonlik olimlardan M.Xaydarov tomonidan Davlat byudjetining soliqli daromadlari tarkibida jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqning tutgan o'rni o'rganilgan. Shuningdek, E.Gadoev fikricha Jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq - fuqarolarning har qanday qonuniy faoliyati manbalari asosida oladigan shaxsiy daromadlaridan davlat foydasiga o'tkazadigan ekvivalentsiz majburiy to'lovdir.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu maqolada mantiqiy usul va modellashtirish usullari, tahlil va sintez, normativ yondashuv, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi: Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish bilan bir vaqtda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga hamda jismoniy shaxslarning faolligini oshirishga ham xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston



Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida’gi PF-5468-son Farmonida soliq siyosati barqarorligini ta’minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozimligi belgilab berilgan edi. Ushbu vazifani bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida’gi PQ-4389 sonli Qarori qabul qilindi va ushbu qaror bilan “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi” qabul qilindi. Shuningdek, ushbu qarorga asosan “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi”ning asosiy vazifalari va yo‘nalishlari belgilab berildi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i byudjet-soliq munosabatlarining kichik tizimi sifatida, xususan, ularning daromadlaridan bir qismini davlatning markazlashtirilgan fondini tashkil etish uchun davlat byudjetiga olib qo‘yish jarayonida yuzaga kelgan munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i O‘zbekistondagi to‘g‘ri soliqlarning bir turi hisoblanadi. Bu soliq hozirgi davrda jismoniy shaxsning umumiy daromadidan foiz stavkasi sifatida hisoblanadi.



Yuqoridagi diagrammadan ko‘rishimiz mumkinki, 2023 yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 29,5 trln.so‘mni tashkil qilib, jami soliq tushumlarining 18 foizini tashkil qilgan.



Daromad solig'i - fuqarolar daromadlaridan to'lanadigan soliqning asosiy turi hisoblanadi. Soliq kodeksi bo'yicha soliq solinadigan daromadga ega jismoniy shaxslar jismoniy shaxslar daromad solig'i to'lovchilar hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;

O'zbekiston Respublikasi norezidentlari;

yakka tartibdagi tadbirkorlar (daromadi yiliga 100 million so'mdan oshmaganligi sharti bilan);

yakka tartibdagi tadbirkorlar qo'lida ishlaydigan jismoniy shaxslar;

oilaviy tadbirkorlikda ishlaydigan oila a'zolari;

hunarmandlar.

O'zbekiston Respublikasi rezidentlari mamlakat ichida va xorijdagi daromadlaridan daromad solig'i to'laydi. Norezidentlardan JShDSni undirish ularning O'zRdagi manbalardan olingan daromadlariga nisbatan qo'llaniladi. Rezidentlar va norezidentlardan JShDSni undirish bo'yicha turlicha stavkalar hamda shartlar belgilangan.

Ayrim jismoniy shaxslar JShDSni qat'iy belgilangan miqdorda to'lashi mumkin:

daromadi 100 million so'mdan oshmagan YaTT;

YaTT qo'lida ishlaydigan jismoniy shaxslar;

oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyat yurituvchi oila a'zolari; hunarmandchilik faoliyati sub'ektlari — «Hunarmand» uyushmasi a'zolari.

O'zbekiston rezident va norezidentlari jismoniy shaxslarning mamlakat ichidagi barcha daromadlari JShDS solish ob'ekti hisoblanadi. Bu qoida rezidentlarning xorijda olgan daromadlari uchun ham amal qiladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning daromadlariga qat'iy belgilangan miqdorda JShDS solinishi mumkin. Mazkur holatda jismoniy ko'rsatkich soliq solish ob'ekti bo'ladi. JShDSni deklaratsiya asosida to'laydigan YaTT uchun tadbirkorlik faoliyatidan olingan har qanday daromad soliq solish ob'ekti hisoblanadi.



JShDSni qat'iy belgilangan miqdorda to'lashning o'ziga xos jihatlari SK 392-moddasida keltirilgan. Soliq solish bazasini shakllantirish JShDS solig'i solinmaydigan daromadlarni umumiy yalpi daromaddan ayirish orqali hisoblanadi. Quyidagi daromadlar summasi yalpi daromad hisoblanadi: mehnatga haq to'lash shaklidagi (ish haqi); moddiy foydagi shaklidagi; mol-mulkga oid; boshqa daromadlar (O'zR SK 377-moddasi).

O'zR jismoniy shaxslari uchun daromad solig'i stavkasi O'zbekiston Respublikasi JShDS soliq stavkasi rezident va norezident jismoniy shaxslar uchun alohida belgilanadi. Rezidentlar uchun JShDS stavkalari Rezidentlar daromadlariga 5 va 12 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi: dividend va foizlar shaklidagi daromadlarga 5 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi, Qolgan barcha daromadlarga 12 foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi. 12 foizlik stavkasi bo'yicha soliq solinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi: jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlari, moddiy foyda ko'rinishdagi daromad, mol-mulkka oid daromadlar va boshqa daromadlar.

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxsning O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlariga soliq solinadigan soliq stavkalari

T/r	Soliq ob'ekti	Foizda
1	Dividendlar va foizlar	10
2	Ushbu Kodeksga muvofiq aniqlanadigan, xalqaro tashishlarda transport xizmatlari taqdim etishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar).	6
3	Mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo'yicha olingan daromadlar, 1 va 2-bandlarda ko'rsatilmagan boshqa daromadlar	12



Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summolari:

vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha miqdorda;

soliq kodeksning 377-moddasida ko'rsatilgan boshqa hollarda, – soliq davri uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining – 4,22 baravarigacha miqdorda;

2) soliq agenti tomonidan quyidagi yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summolari, bundan turistik yo'llanmalar mustasno:

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironligi bo'lgan shaxslarga, shu jumladan ushbu ish beruvchida ishlamaydigan nogironligi bo'lgan shaxslarga to'liq yoki qisman qoplash summolari;

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog'lomlashtirish oromgohlari, shuningdek sanatoriy-kurort hamda sog'lomlashtirish muassasalariga o'z xodimlarining o'n olti yoshgacha bolalari (o'qiydiganlarga – o'n sakkiz yoshgacha) uchun yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summolari;

3) o'z xodimlariga hamda ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, shuningdek ish beruvchining davolashga hamda tibbiy xizmat ko'rsatishga, nogironlik profilaktikasi va nogironligi bo'lgan shaxslarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olishga oid xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko'rsatganlik uchun ish beruvchilar tomonidan sog'liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to'langan taqdirda, shuningdek sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan naqd pul mablag'lari bevosita xodimga, xodim yo'qligida esa – uning oila a'zolariga, ota-onasiga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun



mo'ljallangan mablag'lar xodimning bankdagi hisobvarag'iga kiritilgan taqdirda, bu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summolari va boshqa summalar;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa va boshqalar.

Soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar ozod qilinadi:

chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa – o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha va boshqalar.



Quyidagi soliq to'lovchilar qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha) soliq solishdan ozod etiladi:

«O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Bu imtiyoz tegishincha «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

urush nogironlari va ishtirokchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan va doirasi qonun hujjatlarida belgilanadigan shaxslar. Bu imtiyoz urush nogironining (ishtirokchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (ishtirokchilarga) nogironning (ishtirokchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi ; bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar. Bu imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi va boshqalar.

Soliq imtiyozlari tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Soliq imtiyoziga bo'lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan taqdirda, soliq imtiyozi unga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e'tiboran qo'llaniladi.

Agar soliq to'lovchi bir nechta asos bo'yicha soliq imtiyoziga doir huquqqa ega bo'lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta soliq imtiyozi beriladi.

Soliq imtiyozini qo'llash soliq to'lovchining asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha, asosiy ish joyi mavjud bo'lmagan taqdirda esa – yashash joyidagi soliq organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog'ida amalga oshiriladi. Soliq imtiyoziga bo'lgan huquq yo'qotilgan taqdirda, soliq to'lovchi imtiyozga bo'lgan huquqni yo'qotgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma'lum qilishi kerak.



Xulosa va takliflar: Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarini yanada takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- xodimlarga ish haqini naqd pulda (konvert) to'layotgan, yuridik shaxslarga nisbatan ta'sir choralari kuchaytirish;
- davlat xizmatchilari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar, davlat korxonalari va muassasalari rahbarlari va o'rinbosarlari, ularning turmush o'rtog'i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari va mol-mulkini majburiy deklaratsiya qilish tizimi joriy etish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'g'ri hisoblanishi byudjetga soliq tushumlarini o'z vaqtida tushishiga, soliqni hisoblashda optimal usullardan foydalanish qo'llanilishi aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахманов О. Жисмоний шахслардан олинадиган солиқлар тизими ва уни такомиллаштириш масалалари. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: ДЖҚА, 2005.– 40 б.
2. Адизов А. Жисмоний шахслардан олинадиган солиқлар тизимини такомиллаштириш. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: ДЖҚА, 2004. – 21 б.
3. Жумаев Ш. Йирик солиқ тўловчиларга оид солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш масалалари: и. ф. д (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати //Тошкент. – 2023. – Т. 2. – С. 2018-2022.
4. Жумаев Ш. Йирик солиқ тўловчиларга оид солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш масалалари. Монография. – Тошкент, Иқтисодиёт нашриёти ДУК, 2023.-161 б.
5. Жумаев, Ш. (2024). Ўзбекистон республикасида солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 2(4), 368–374. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp368-374>